



UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA “CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK” FANINI O‘QITISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

Rajabov Rasulbek Sobir o‘g‘li
Magistr

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanidan o‘quvchilarga bilim berilishining bugungi kundagi holati yoritilib, fan bo‘yicha dars mashg‘ulotlari sifatini oshirishga tavsiyalar berib o‘tilgan.

Аннотация: в данной статье освещается современное состояние образования учащихся по предмету «Первичная подготовка перед призывом» в общеобразовательных общеобразовательных школах, а также даются рекомендации по повышению качества проведения уроков по предмету.

Abstract: in this article, the current state of education of students in the subject of "Primary preparation before convocation" in general secondary schools is highlighted, and recommendations are made to improve the quality of lessons in the subject.

Kalit so‘zlar: ChQBT, ta‘lim, tarbiya, jonkuyar, vatanparvar, fidoiy, harbiy, xizmatchi, umumiy o‘rta ta‘lim, maktab.

Ключевые слова: НППП, образование, воспитание, ревностный, патриотический, самоотверженный, военный, служащий, общее среднее образование, школа.

Key words: ITBD, education, upbringing, zealous, patriotic, selfless, military, servant, general secondary education, school.

Kirish. Mamlakatimizni tinchligi, osoyishtaligi uchun bizga o‘z jonini ayamaydigan, jonkuyar, fidoiy harbiy xizmatchilar muhim o‘rin tutadi.





uchun o'sib kelayotgan yoshlarimiz tasavvurlari hamda bilimlariga ega bo'lishlari lozim. Bu bilimlarni esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida 10-11 sinflarda "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarli" fani beradi. Haqiqatdan ham bu fan o'quvchilarga harbiyga oid bo'lgan bilimlarni to'laqonli bera olyaptimi? Bu haqda mulohaza qiladigan bo'lsak biroz o'ylanib qolamiz xo'sh nega? Kengroq tahlil qiladigan bo'lsak umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarli" fani bo'yicha dars mashg'ulotlari turli me'todlarni qo'llagan holda olib borilmoqda. Bu albatta o'z natijasini beradi. Ammo bir savol tug'iladi o'sib kelayotgan yoshlarni haqiqiy Vatanparvar qilib tarbiyalashda atiga 2 yil (10-11 sinflarda) bilim berib bu ham mayli haftasiga har bir sinf uchun 1 soat dars berilsa yoshlarni haqiqiy vatanparvar, mard, jonkuyar bundan tashqari voyaga yetgan vaqtlarida vatanimiz sarhadlarini qo'riqlay oladigan millat qaxramonlarini tarbiyalash qanchalik to'g'ri.

Bugungi kunda hech kimga sir emas umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida tarbiya, odob-axloq, ustozga bo'lgan hurmat, vatanparvarlik xissi 100% shakllangan deb ayta olamizmi afsuski yo'q. Bunga sabab nima? Qaysi omillar sabab bo'lmoqda. Maktablardagi noqulay (ayrim maktablarda) auditoriyalar, zamonaviy jihozlarning yetishmasligi deymizmi? Bizning fikrimizcha bular sabab bo'lmaydi. Chunki, ota-bobolarimiz xozirgi sharoitdan ko'ra xarobaga aylangan ta'lim dargohlarida taqsil olishgan. Lekin ularda kattaga, ustozlarga bo'lgan hurmat, odob-axloq, vatanparvarlik xozirgidan ko'ra yaxshiroq rivojlangan. Bu bilan biz nima demoqchimiz o'quvchilarni vatanparvarlik xissi shakllanishida 100% zamonaviy jihozlangan auditoriya muhim ahamiyat kasb etmaydi. Agarda har tomonlama talab darajasidagi auditoriya, bilimli ustozlar bilan ta'minlansa ko'rsatkichlar yanada ortadi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion





shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni [1] umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini rivojlantirish uchun ayni muddao bo‘ldi. Farmonga ko‘ra amalga oshirilishi kerak bo‘lgan quyidagi ishlar nazarda tutilgan:

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanishi va unda quyidagilar nazarda tutilishi:

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish;

yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;





yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish;

b) O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"si (keyingi o'rinlarda — "Yo'l xarita"si) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanishi;

Konsepsiya tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan "Yo'l xarita"si orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Yuqoridagi farmondan ko'rinib turibdiki bundan maqsad umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirishdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani o'quv samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni berib o'tmoqchimiz:

- Avvalo, ChQBT fanidan dars mashg'ulotlarini oliy ma'lumotli haqiqiy mutaxassislar olib borishini ta'minlash;
- ChQBT bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan OTMlar sonini ko'paytirish;
- ChQBT fani amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda kerak bo'ladigan o'quv-moddiy baza bilan ta'minlash (AK-74ning maketi hamda qismlarga ajratish, qayta yig'ish amallarini bajarish uchun, granata maketi granatani uloqtirishni o'rgatish va boshqa amallarni bajarish);
- Harbiy qismlarga tashrif buyurib o'quvchilarni harbiylar hayoti bilan tanishtirish;





- ChQBT fani nazariy mashg'ulotlarini ta'lim metodlarini qo'llagan holda olib borish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni
2. Mashrapov Q.O., Haydarova M.M. Harbiy ta'lim o'quv jarayoniga kredit-modul tizimining kirishi // *Интернаука: электрон. научн. журн.* 2021. № 19(195). URL: <https://internauka.org/journal/science/internauka/195> (дата обращения: 27.05.2022).
3. Olimjonovich, M. Q. (2022, December). HARBIY FAKULTETLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O 'QITISHNING KREDIT-MODUL TIZIMIDAN FOYDALANISH. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 1, No. 3, pp. 200-210).
4. Khoshimjon, Y. S., Olimjonovich, M. K., & Ibrahim, H. (2022). ASSESSMENT OF THE SEISMIC RESISTANCE OF BUILDINGS AND STRUCTURES AND METHODS OF CREATING ELECTRONIC TECHNICAL PASSPORTS. *Scientific Impulse*, 1(5), 163-166.
5. Mashrapov, Q., & Xasanboyev, I. (2022). TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BILIM OLAYOTGAN TALABALARNING O 'Z MUTAXASSISLIKLARI BO 'YICHA YETUK KADR BO 'LIB YETISHISHLARIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING O 'RNI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(6), 82-87.
6. Mashrapov, Q. O. (2021). HARBIY TALIM OQUV JARAYONIGA KREDIT-MODUL TIZIMINING KIRISHI. *Интернаука*, (19-6), 10-14.
7. Mashrapov, Q., Yoqubjanova, Y., Djurayeva, D., & Xasanboyev, I. (2022).





THE ROLE OF CREDIT-MODULE SYSTEM IN DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPECIALTIES IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(6), 332-336.

